ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24159045

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari

O‘rinova Nilufar Muxammadovna –
Farg‘ona davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
E-mail: urinova.nm@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-5430-1050

Annotatsiya. *Oliy ta’limda tyutor lavozimi joriy etilib, pedagogika yo‘nalishlari o‘quv rejalariga tyutorlikka oid fan kiritilgan bo‘lsa-da, bitiruvchilarning bu faoliyatga amaliy tayyorgarligi yetarli emas. Maqolada shu ziddiyatning sabablari ochib berilgan va uni bartaraf etish yo‘llari asoslangan. Tyutorning sakkiz funksiyasi to‘rt klasterga birlashtirilib, har biriga mos kompetensiya belgilangan. Tayyorlovning uch bosqichi, to‘rt pedagogik sharti (fanni amaliyotga yo‘naltirish, tengdosh-tyutorlik amaliyoti, shaxsiy portfel va individual trayektoriya, raqamli qo‘llab-quvvatlash) hamda tayyorgarlikni baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlari taklif etilgan. Natijalardan pedagogika yo‘nalishlarida tyutorlik fanining dasturini takomillashtirish va pedagogik amaliyotni rejalashtirishda foydalanish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *tyutor, tyutorlik faoliyati, bo‘lajak o‘qituvchi, tyutorlik kompetensiyalari, tengdosh-tyutorlik, individual ta’lim trayektoriyasi, pedagogik shart-sharoit, refleksiya.*

Содержание и педагогические условия подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности

Аннотация. *Несмотря на введение должности тьютора в вузах и включение дисциплины по тьюторству в учебные планы педагогических направлений, практическая готовность выпускников к этой деятельности остаётся недостаточной. Восемь функций тьютора объединены в четыре кластера, для каждого определена соответствующая компетенция. Предложены три этапа подготовки, четыре педагогических условия (практико-ориентированная перестройка дисциплины, практика тьюторства «равный – равному», личное портфолио и индивидуальная траектория, цифровая поддержка), а также мотивационный, когнитивный, деятельностный и рефлексивный критерии оценки готовности. Результаты могут быть использованы при совершенствовании программы дисциплины по тьюторству и планировании педагогической практики.*

Ключевые слова: *тьютор, тьюторская деятельность, будущий учитель, тьюторские компетенции, тьюторство «равный – равному», индивидуальная образовательная траектория, педагогические условия, рефлексия.*

Content and pedagogical conditions for preparing future teachers for tutoring activities

Annotation. *Although the position of tutor has been introduced in Uzbek universities and a course on tutoring has been added to teacher education curricula, graduates remain insufficiently prepared to work as tutors in practice. Eight tutor functions are grouped into four clusters, each linked to a corresponding competence. The article proposes three stages of preparation, four pedagogical conditions (a practice-oriented redesign of the course, peer tutoring practice, a personal portfolio and individual learning pathway, and digital support), and motivational, cognitive, activity-based and reflective criteria for assessing readiness. The findings can inform the revision of the tutoring course syllabus and the planning of teaching practice.*

Keywords: *tutor, tutoring, pre-service teacher, tutoring competences, peer tutoring, individual learning pathway, pedagogical conditions, reflection.*

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimiz oliy ta'limida kechayotgan o'zgarishlarning eng sezilarli jihatlaridan biri-talaba bilan ishlash mazmunining tubdan qayta ko'rib chiqilishidir. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida kredit-modul tizimiga o'tish hamda talabaning mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1; 2]. Ushbu vazifalarning amaliy ifodasi sifatida 2021-yil 1-sentabrdan boshlab guruh murabbiyi instituti o'rniga tyutor lavozimi joriy etildi, Vazirlar Mahkamasining 563-son qarori bilan esa bakalavriatning 1-3-kurslarida har 120-150 nafar talabaga bitta tyutor shtat birligi ajratildi [3].

Tyutorga bo'lgan ehtiyoj bir necha omil bilan izohlanadi. Birinchidan, kredit-modul tizimida o'quv yuklamasining salmoqli qismi mustaqil ta'limga o'tdi, talaba esa tanlov fanlarini o'zi belgilaydigan, o'z o'qish sur'atini o'zi rejalashtiradigan subyektga aylandi. Bunday erkinlik o'z-o'zidan natija bermaydi: maqsad qo'yish, vaqtni taqsimlash va resurslarni topishni bilmagan talaba uchun u ko'pincha akademik qarzdorlikka olib keladi. Aynan shu nuqtada talaba bilan birga individual ta'lim trayektoriyasini quradigan va uning bajarilishini kuzatib boradigan pedagog zarur bo'ladi. Ikkinchidan, oliy ta'limning qamrovi kengayishi bilan auditoriyalarga turli tayyorgarlik darajasi, turli hayotiy vaziyat va ehtiyojga ega yoshlar kelmoqda. Birinchi kurs talabasining yangi muhitga moslashishi, yotoqxona hayoti, ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklar – bularning barchasi o'qituvchining dars doirasidan tashqarida qoladi. Tyutor esa talaba, professor-o'qituvchi, ma'muriyat va ota-ona o'rtasidagi vositachi sifatida bu bo'shliqni to'ldiradi. Uchinchidan, tyutorlik talabaning faqat o'zlashtirishiga emas, balki uning shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi. Tyutor bilan muntazam muloqot talabada o'z faoliyatini tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z o'qishi uchun mas'uliyat his etish ko'nikmalarini rivojlantiradi; bular esa umrbod ta'lim olishning asosi hisoblanadi. To'rtinchidan, xorijiy tajriba tyutorlikning samaradorligini isbotlagan: Oksford va Kembrij universitetlarida asrlar davomida saqlanib kelayotgan tyutorial tizim talabaning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning eng ishonchli shakllaridan biri sifatida tan olingan, oliy ta'limdagi tyutorlik dasturlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar sharhi ham uning talabalar akademik natijalariga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi [5]. Demak, tyutorlik oliy ta'limga tashqaridan kiritilgan ma'muriy yangilik emas, balki kredit-modul tizimining ichki mantig'idan kelib chiqadigan zaruratdir. Shu bilan birga, lavozimning paydo bo'lishi bu faoliyatni bajaradigan mutaxassisning paydo bo'lishini anglatmaydi. 60110100 – Pedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishining yangi malaka talabida bitiruvchining kasbiy faoliyat sohalari qatorida oliy va professional ta'lim

muassasalarida tyutor sifatida ishlash ham ko'rsatilgan [4]. Bu talabga javoban pedagogika yo'nalishlari o'quv rejalariga tyutorlik faoliyatiga oid fan ham kiritildi. Bu muhim qadam, ammo fanning joriy etilishi muammoni to'liq hal qilmaydi. Kuzatishlarimizga ko'ra, fan mazmuni asosan nazariy bilimlar – tyutorlik tarixi, tushunchalar va funksiyalar bilan cheklanmoqda, pedagogik amaliyot esa hamon dars o'tish va uning metodikasi atrofida qurilmoqda. Talaba tyutorlik haqida biladi, lekin tyutor sifatida harakat qilib ko'rmaydi. Shu tariqa masala endi "fan bormi-yo'qmi" emas, balki "fan qanday natija bermoqda" degan savolga ko'chdi: bilim berish bilan kasbiy harakatni shakllantirish o'rtasida hali tizimli bog'lanish yetarli emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tyutorlik g'oyasi ingliz universitetlarining ko'p asrlik an'anasidan o'sib chiqqan bo'lsa-da, uning nazariy talqini XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. D.Vud, J.Bruner va G.Ross tyutorlikni o'quvchining mustaqil harakatlari uchun vaqtinchalik "tayanch" yaratish jarayoni sifatida izohlab, tyutorning vazifasini topshiriqni soddalashtirish, diqqatni yo'naltirish va xatolarni o'z vaqtida ko'rsatishda ko'radi [6]. K.Rojers esa pedagogni bilim uzatuvchi emas, balki o'qishni yengillashtiruvchi – fasilitator sifatida tavsiflab, tyutorlikning insonparvarlik asosini yaratdi [7]. K.Topping oliy ta'limdagi tengdoshlar tyutorligi turlarini tasniflab, uning talabalar akademik natijalariga ijobiy ta'sirini ko'plab tadqiqotlar misolida ko'rsatgan [5]. Masofaviy ta'lim sharoitida tyutorning roli M.Mur va G.Kirsli ishlarida tizimli tahlil qilingan [8]. Rus pedagogikasida tyutorlik alohida ilmiy maktab sifatida rivojlandi. A.A.Popov tyutorlikni shaxsning madaniy o'zini o'zi belgilashiga xizmat qiluvchi pedagogik tizim deb qaraydi [9]. T.M.Kovalyova va uning hammualliflari tyutorni individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirishda hamrohlik qiluvchi alohida pedagogik pozitsiya sifatida talqin etadi [10]. S.A.Shchennikov, A.G.Teslinov va A.G.Chernyavskaya tyutor faoliyatining funksional tarkibini masofaviy ta'lim misolida ochib bergan [11], Ye.A.Andreyeva esa Angliya, Germaniya, BAA va Rossiyadagi tyutorlik modellarini qiyosiy tahlil qilgan [12].

Mamlakatimizda bu masala nisbatan yaqinda tadqiq etila boshlandi. T.U.Kulniyazov tyutorlikning an'anaviy va innovatsion modellarini tasniflab, tyutorlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda tashkiliy-boshqaruv, kommunikativ, fasilitatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy rivojlantiruvchi funksiyalarning ustuvorligini asoslagan [13]. Biroq mavjud tadqiqotlar asosan amaldagi tyutorlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bu faoliyatga talabalik davridan, ya'ni bakalavriat bosqichida tayyorlash masalasi alohida o'rganilmagan. Ushbu bo'shliq tadqiqotimizning asosiy yo'nalishini belgiladi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy [14], subyekt-faoliyatli, shaxsiy-aksiologik va ekzistensial yondashuvlar tashkil etdi. Nazariy tahlil, qiyoslash va umumlashtirish, anketa so'rovi, suhbat, pedagogik kuzatish va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Diagnostik so'rov Farg'ona davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Andijon davlat universitetining 60110100-Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari o'rtasida o'tkazildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Diagnostika natijalari kutilganidan ham aniqroq manzarani ko'rsatdi. Tyutorlikka oid fan o'quv rejasida mavjud bo'lishiga qaramay, respondentlarning 65 foizi tyutorlik faoliyatining mazmunini aniq tasavvur qila olmasligini, faqat 18 foizi esa o'zini boshqalarga o'quv va shaxsiy masalalarda maslahat bera oladigan darajada tayyor deb hisoblashini qayd etdi. Suhbatlar va kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, muammo faqat bilim yetishmasligida emas. Talabalarning aksariyati o'zini bilim uzatuvchi sifatida ko'radi; "yonida turish", savol orqali yo'naltirish, talabaning o'zi qaror qabul qilishiga imkon berish kabi harakatlar ular uchun begona. Boshqacha aytganda, shakllantirilishi lozim bo'lgan narsa – alohida ko'nikmalar

yig'indisi emas, balki yangi kasbiy pozitsiyadir. Bundan tashqari, tayanch o'quv-metodik adabiyotning kamligi, pedagogik amaliyot dasturlarida tyutorlik topshiriqlarining yo'qligi va tyutorlik natijalarini baholash mezonlarining ishlab chiqilmaganligi aniqlandi.

Tyutor funksiyalari va ularga mos kompetensiyalar. Xorijiy va mahalliy manbalarni umumlashtirish asosida O'zbekiston oliy ta'limi sharoitida tyutorning sakkiz funksiyasini ajratdik: boshqaruv, diagnostik, maqsad belgilash, motivatsion, rejalashtirish, kommunikativ, refleksiv va uslubiy. Amaliy tayyorlov uchun ularni alohida-alohida emas, balki o'zaro yaqin harakatlar bo'yicha klasterlarga birlashtirgan holda o'rgatish samaraliroq ekanini kuzatdik (1-jadval).

1-jadval

Tyutor funksiyalari klasterlari va bo'lajak o'qituvchida shakllanadigan kompetensiyalar

Klaster	Funksiyalar	Tyutorning asosiy harakatlari	Shakllanadigan kompetensiya
Tashkiliy-boshqaruv	Maqsad belgilash, rejalashtirish, boshqaruv	Talaba bilan birgalikda qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash, individual ta'lim rejasini tuzish, uning bajarilishini kuzatish va tuzatish	Individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va boshqarish
Diagnostik-refleksiv	Diagnostik, refleksiv	Talabaning o'qish uslubi, ehtiyoj va qiyinchiliklarini aniqlash; muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini talaba bilan birga tahlil qilish	Pedagogik diagnostika va refleksiyani tashkil etish
Kommunikativ-motivatsion	Kommunikativ, motivatsion	Ishonchli muloqot muhitini yaratish, faol tinglash, savol orqali yo'naltirish, ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlash	Pedagogik hamrohlik va fasilitatsiya
Uslubiy	Uslubiy	Topshiriqlar, so'rovnomalar, refleksiya kundaliklari va boshqa vositalarni ishlab chiqish; o'z tajribasini tavsiflash	Tyutorlik vositalarini yaratish va qo'llash

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tyutorlik kompetensiyalari o'qituvchining umumkasbiy kompetensiyalarini inkor etmaydi, balki ularni boshqa yo'nalishga buradi: diqqat markazida "nimani o'rgatish" emas, "talabaning o'zi qanday o'rganishi" turadi.

Tayyorlov bosqichlari. Tajribamiz shuni ko'rsatdiki, tyutorlik kompetensiyalari birdaniga emas, ketma-ket uch bosqichda shakllanadi. Birinchi – motivatsion-qadriyatli bosqichda talaba tyutorlikni o'zi uchun mazmunli faoliyat sifatida anglashi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim qadriyatlarini qabul qilishi muhim; bu bosqichda dastlabki diagnostika, kirish treningi va guruh suhbatlaridan foydalaniladi. Ikkinchi – axborot-nazariy bosqichda tyutorlik tarixi, funksiyalari, turlari va me'yoriy asoslari o'rganiladi; bu yerda pedagogika va psixologiya fanlari bilan fanlararo bog'lanish ta'minlanadi, keys tahlili va muammoli bayon asosiy metod bo'ladi. Uchinchi – amaliy bosqichda talabalar kichik kurs talabalari bilan tengdosh-tyutor sifatida real ish olib boradi, konsultatsiya va tyutorial o'tkazadi, o'z kasbiy rivojlanish trayektoriyasini "Men – hozir, men – kelajakda" loyihasi shaklida ishlab chiqadi. Har bir bosqich oxirida talaba o'z harakatlarini refleksiya kundaligida tahlil qiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar. Tayyorlov samaradorligi quyidagi to'rt shartning birgalikda bajarilishiga bog'liq:

birinchidan, o‘quv rejasiga kiritilgan tyutorlik fanini nazariy kursdan amaliyotga yo‘naltirilgan kursga aylantirish: uning mazmunini tyutorlik tarixi, bosqichlari va funksiyalari bilan bir qatorda tyutorial va konsultatsiya metodikasi, keys va treninglar bilan boyitish hamda “Tyutorlik faoliyati asoslari” elektiv kursi bilan to‘ldirish;

ikkinchidan, tyutorlik amaliyotini pedagogik amaliyot tarkibiga integratsiya qilish – har bir talaba kamida bir semestr davomida kichik kurs talabalari bilan tengdosh-tyutor sifatida ishlashi;

uchinchidan, talabaning shaxsiy portfeli va individual ta’lim trayektoriyasini yuritish orqali tyutorlik vositalarini avval o‘z tajribasida sinab ko‘rish imkonini yaratish;

to‘rtinchidan, raqamli qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish – “YOU_TUTOR” mobil ilovasi orqali konsultatsiyalarni rejalashtirish, refleksiya yozuvlarini yuritish va tyutorant bilan aloqa saqlash.

Uchinchi shart alohida izohni talab qiladi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘zi individual reja tuzmagan, o‘z o‘qishini refleksiya qilmagan talaba boshqaga bunday yordamni ko‘rsata olmaydi. Shu sababli tyutorlik vositalari avval talabaning shaxsiy tajribasidan o‘tishi, so‘ngra kasbiy vositaga aylanishi lozim

Tayyorgarlik mezonlari va darajalari pedagogik faoliyat mahsuldorligining reproduktivdan ijodiygacha bo‘lgan besh darajasini aniqlaydi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, biz tyutorlik faoliyatiga tayyorgarlikning to‘rt mezonini va uch darajasini (past, o‘rta, yuqori) belgiladik (2-jadval).

2-jadval

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligi mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	**Ko‘rsatkichlar**
Motivatsion	Tyutorlik faoliyatiga barqaror qiziqish; shaxsga yo‘naltirilgan paradigma qadriyatlarini qabul qilish; o‘zini tyutor sifatida ko‘ra olish
Kognitiv	Tyutorlik mohiyati, funksiyalari, turlari va me’yoriy asoslari haqidagi bilimlarning to‘liqligi va tizimliligi
Faoliyatli	Diagnostika o‘tkazish, individual reja tuzish, konsultatsiya va tyutorialni tashkil etish ko‘nikmalari; standart va nostandart vaziyatlarda harakat qila olish
Refleksiv	O‘z tyutorlik harakatlarini tahlil qilish, xatolarini anglash va tuzatish; tyutorantda refleksiyani tashkil eta olish

Refleksiv mezonning alohida ajratilishini muhim deb hisoblaymiz. Amaliyotda talaba tyutorlik funksiyalarini o‘qituvchi bergan algoritm asosida bajara olishi mumkin, ammo bu hali yuqori daraja emas. Yuqori daraja aynan o‘z harakatini tahlil qilish va vaziyatga qarab o‘zgartira olish bilan belgilanadi. Olingan natijalarni mavjud tadqiqotlar bilan solishtirish ikki muhim farqni ko‘rsatadi. Birinchidan, mahalliy tadqiqotlarda tyutorlar amaldagi xodim sifatida qaralgan bo‘lsa [13], bizning yondashuvimizda tayyorlov bakalavriat bosqichiga ko‘chiriladi: tyutorlik kompetensiyalari pedagogning umumkasbiy tayyorgarligi tarkibiga kiritiladi. Ikkinchidan, Rossiya tajribasida tyutor alohida mutaxassislik sifatida standartlashtirilgan [10; 12]; O‘zbekistonda esa tyutor-lavozim, uni turli yo‘nalish bitiruvchilari egallashi mumkin.

XULOSA

Oliy ta’limda tyutor lavozimining joriy etilishi pedagog kadrlar tayyorlash tizimi oldiga yangi vazifa qo’ydi. Pedagogika yo’nalishlari o’quv rejalariga tyutorlikka oid fan kiritilgan bo’lsa-da, u hozircha asosan nazariy xarakterga ega va pedagogik amaliyot bilan yetarli darajada bog’lanmagan. O’tkazilgan tadqiqot shuni ko’rsatdiki, bo’lajak

o'qituvchilarda tyutorlik haqidagi bilimlardan ham ko'ra talabaga hamrohlik qiluvchi kasbiy pozitsiya yetishmaydi. Shu sababli tayyorlov bilim berish bilan cheklanmasdan, talabani tyutor sifatida real harakat qilishga va o'z harakatini tahlil etishga olib chiqishi lozim.

Tyutorning sakkiz funksiyasini tashkiliy-boshqaruv, diagnostik-refleksiv, kommunikativ-motivatsion va uslubiy klasterlarga birlashtirish ularni o'rgatish va baholashni aniqroq tashkil etish imkonini beradi. Tyutorlik kompetensiyalari motivatsion-qadriyatli, axborot-nazariy va amaliy bosqichlarda izchil shakllanib boradi, har bir bosqichning refleksiya bilan yakunlanishi esa olingan tajribaning kasbiy ko'nikmaga aylanishini ta'minlaydi. Tayyorlov samaradorligi tyutorlik fanini amaliyotga yo'naltirish, pedagogik amaliyotga tengdosh-tyutorlikni integratsiya qilish, talabaning shaxsiy portfeli va individual ta'lim trayektoriyasini yuritish hamda raqamli qo'llab-quvvatlash muhitini yaratishdan iborat pedagogik shart-sharoitlarning birgalikda amalga oshirilishiga bog'liq. Bo'lajak o'qituvchilarning bu faoliyatga tayyorgarligini motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlar asosida baholash tayyorlov jarayonini muntazam kuzatib borish va o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 563-son "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. 60110100 – Pedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. – Toshkent, 2024.
5. Topping K.J. The effectiveness of peer tutoring in further and higher education: A typology and review of the literature // Higher Education. – 1996, № 3. – P. 321–345.
6. Wood D., Bruner J.S., Ross G. The role of tutoring in problem solving // Journal of Child Psychology and Psychiatry. – 1976. – Vol. 17, № 2. – P. 89–100.
7. Rogers C.R. Freedom to Learn. – Columbus (Ohio): Charles E. Merrill, 1969.
8. Moore M.G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. – 3rd ed. – Belmont (CA): Wadsworth, 2012.
9. Попов А.А. Тьюторство как педагогическая система культурного самоопределения // Тьюторство: идея и идеология: материалы I межрегион. тьютор. конф. – Томск, 1996. – С. 49–57.
10. Ковалёва Т.М., Кобыща Е.И., Попова (Смолик) С.Ю., Теров А.А., Чередилина М.Ю. Профессия «тьютор». – М.; Тверь: СФК-офис, 2012.
11. Щенников С.А., Теслинов А.Г., Чернявская А.Г. Основы деятельности тьютора в системе дистанционного образования. – М.: Дрофа, 2005. – 608 с.
12. Андреева Е.А. Сравнительный анализ моделей тьюторства (на примере Англии, Германии, Объединённых Арабских Эмиратов и России): автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.01. – М., 2012. – 23 с.
13. Kulniyazov T.U. O'zbekistonda yangi ta'lim konsepsiyasi sharoitida tyutorlarning amaliy faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari (oliy ta'lim muassasalari misolida): ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Nukus, 2024.